www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari

Soatova Rayxona Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti Pedagogika yo'nalishi talabasi
rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, darslik va qo'llanmalarida yosh avlodni tarbiyalash borasidagi fikrlari aks etgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ma'rifat, ilm, vatanparvarlik, maktab, kitob.

Annotation: This article reflects Abdulla Avloni's pedagogical views, his thoughts on educating the young generation in textbooks and manuals.

Key words: education, enlightenment, science, patriotism, school, book.

Аннотация: В данной статье отражены педагогические взгляды Абдуллы Авлони, его размышления о воспитании подрастающего поколения по учебникам и пособиям.

Ключевые слова: образование, просвещение, наука, патриотизм, школа, книга.

Abdulla Avloniy – buyuk pedagog, publitsist, dramaturg, shoir. U turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, pedagogik faoliyat uning hayotida muhim sahifa hisoblanadi. Abdulla Avloniy deyarli butun hayotini pedagogik sohaga bag'ishlab, o'qituvchilik bilan shug'ullangan. Shuni aytish kerakki, u Sharq pedagogikasining buyuk bilimdoni, shu qatorda XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschilaridan biridir.

Ma'lumki, kundan kunga barcha sohalar rivojlanib bormoqda. Shular qatorida pedagogik fanlar ham anchayin rivoj topib, ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. O'zbek pedagogikasi rivojlanishini buyuk jadidchilarimiz Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonovlarning asarlari-yu qarashlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ma'rifatparvar jadidchilarimizdan biri Abdulla Avloniyning bu boradagi ishlari alohida e'tiborga molikdir.

Abdulla Avloniy faoliyatining asosida inson va uning kamoloti yotadi. Inson doimo ilm-ma'rifatga intilishi, aql-zakovati, g'aflatdan yiroq bo'lishga intilishi, shukronalik hissining yuqori bo'lishi bilan boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Avloniyning asarlarida ma'rifat uyi bo'lgan maktab, maktab faoliyati, hunarning foydasi haqida anchayin teran fikrlar aytib o'tilgan.

Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir,

Hunar bog'ida tubi qad aziz ilm o'lmasa, nedir...[1]

Xalqimiz, millatimiz kundan kun ilm-ma'rifatdan uzoqlashib, moddiyatga, tubanlikka, sotqinlik orqali mansab egallashga ruju qo'yayotganligi haqida **"Sadoqat bizda yo'qdur..."** she'rida quyidagi jumlalarni keltirib o'tadi:

Sadoqat bizda yo'qdur, demakim, yalg'onimiz bordur,

Ulum-u ma'rifatdan demakim, nuqsonimiz bordur...[2]

---

[1] Abdulla Avloniy, "She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma". Abdulla Avloniy / Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: "Zabarjad Media", 2022. 25-bet

[2] Shu asar 31-bet.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Shuningdek, u bolalarda mehnatga muhabbat uyg‘otishga, har kim baxt va kamolotga faqat mehnat orqaligina yetishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Nodonlikning oqibati, jaholatga qarshi kurash, barcha fojia va baxtsizliklarning sababi ilmsizlik ekanligi jadid adabiyotining, xususan, Avloniy ijodining ham asosiy mavzularidan biridir.

Yashamak istar esak, ilma ravon o‘lmaliyuz,

Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o‘lmaliyuz.[3]

Abdulla Avloniy mukammal inson haqida fikr yuritganda u uchun eng kerakli narsa bu, avvalo, axloq ekanligini doimo alohida ta’kidlagan. **Axloq, bu – xulqlar majmuyi. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning, muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xalq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadi** [4], degan fikrlarni o‘z asarlarida alohida yoritganlar.

Kishi qancha bilimli, dono bo‘lmasin, agar unda namunali tarbiya shakllanmagan bo‘lsa, u komil insonlar qatoridan joy ololmaydi. Avloniy aytganidek: **“Kishilar tug‘ilishdan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir ”**[5].

Abdulla Avloniyning asarlarida nafaqat aql tarbiyasi, maktab faoliyati, ma’rifatparvarlikka, balki vatanparvarlikka, sadoqatlilikka va sof vijdon egasi bo‘lishga ham chaqirilgan. Jadidchi bobomiz Vatanni onadek muqaddas bilish, uning dardi bilan yashash, baxtidan quvonish, undan faxrlanishi kerakligini alohida ta’kidlaydilar. Ona yurtning nafaqat quvonchli kunlariga sherik bo‘lish, balki g‘am-hasratini ham baham ko‘rish chin vatanparvar farzandning burchi ekanligini aytadilar.

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,

Bango na g‘am qolur, avlodima o‘y-u vatanim.

Abdulla Avloniy atoqli pedagog sifatida butun umrini ilm-u ma’rifatga, maktab faoliyatiga bag‘ishlagan. Buyuk bobomizning pedagogik qarashlarida tarbiya, ma’rifat, Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, inson va jamiyat, dunyo kamoloti uchun xizmat qilish yaqqol sezilib turadi. Ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan **“Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”** kabi asarlari juda katta ahamiyatga molikdir. Uning bu asarlari har tomonlama barkamol, sog‘lom fikrli bo‘lajak avlodni, pedagog kadrlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari, kuchli pedagoglarni tayyorlash, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar yaratilishiga ushbu asarlar asos bo‘la oladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning pedagogik fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va xalqimiz tomonidan hamisha qadrlanadi.

---

[3] Shu asar 42-bet.

[4]Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar: 2 jildlik / To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi B.Qosimov; Izohlar va lugat O. To‘laboyevniki; - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009. 31-32-betlar

[5]Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar: 2 jildlik / To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi B.Qosimov; Izohlar va lugat O. To‘laboyevniki; - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009. 32-bet

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy, “She’rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma”. Abdulla Avloniy / Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022.

2. Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar: 2 jildlik / To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi B.Qosimov; Izohlar va lugat O. To‘laboyevniki; - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009.

3. M.A. Saidova. (2022). Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. SCIENTIFIC PROGRESS. Vol.3, Issue 4, 918-922-betlar.

4. R.H. Satimova. (2023). Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 109-113-betlar.

5. Sh.B. Komilova. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI. Tadqiqotlar. Vol.13, 121-123-betlar.